

## TA'LIM MUASSASASI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Safarova Dilnoza Kuchkarovna*

*UMFT "Gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi*

[safarova\\_dilnaza@mail.ru](mailto:safarova_dilnaza@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligining pedagogik-psixologik asoslari mavzusida bo'lib, unda ota-onalar va ta'lim muassasasi bilan hamkor bo'lib ishlash, birgalikda psixologik yondashish kerakligi haqida fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** hamkorlik, yondashish, oila, jamoa, tarbiya

**Аннотация:** Данная статья посвящена теме педагогических и психологических основ сотрудничества образовательного учреждения и родителей.

**Ключевые слова:** сотрудничество, подход, семья, сообщество, воспитание

Har qanday jamiyatda bo'lgani kabi bizning jamiyatimizda ham har bir alohida shaxs va yaxlit xalq manfaatlarini himoya qiluvchi, ularni birlashtiruvchi, yurt tinchligi va turmush farovonligini ta'minlovchi ilg'or g'oyalar borki, ularning har bir fuqaro tomonidan anglanganlik darajasi ana shu jamiyatning rivojlanishi tamoyillarini belgilaydi. Shu ma'noda, shaxsdagi axloqiylik va e'tiqodlilikni ana shunday sog'lom dunyoqarashlarni, teran fikrlashni ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik omil hamda shart-sharoit, deb e'tirof etish mumkindirki, uning mohiyatini ilk bolalikdan oila muhitida, undagi qadriyatlar doirasida, ota va onaning obro'si, bilimdonligi, o'rnak bo'luvchi shaxs sifatidagi ta'sirida ular ongiga singdirish psixologik ahamiyatga ega. Chunki oila asrlar mobaynida xalq an'analari, milliy rasm-rusumlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir. Shuning uchun Respublika Prezidenti SH.M.Mirziyoyev oila va undagi an'analarga, milliy qadriyatlarimizga juda katta e'tibor berib, oilaning mustahkam bo'lishi, unda yosh avlod tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, eng avvalo ulardagi mustaqil fikrlash, sog'lom e'tiqod va teran dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlab, shu asnoda tarkib topadigan qarashlar tizimini millatning mafkurasi, deb ta'riflaydilar.

Ilg'or o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish ancha yengil bo'ladi va muvaffaqiyati ta'minlanadi. Yaxshi uyushgan sog'lom jamoada o'quvchilarning

fikri juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi va tarbiya jarayonida o'qituvchilarning [tavanchiga aylanadi](#).

*Hozirgi vaqtda ota-onalar bilan ishlashning samarali shakllari mavjud:*

- Suhbatlar
- Ota-onalar yig'ilishi
- Ota-onalarning sinf rahbarlari bilan maslahatlari
- [Ochiq darslar](#)
- Ochiq eshiklar kuni
- Savol - javob
- Stend va ma'lumot [papkalari dizayni](#)
- Pedagogik adabiyotlar ko'rgazmalari
- Ota-onalar uchun konsertlar
- O'qituvchilarning topshiriqlarini bajarishda bolaga yordam berish;
- Hammasida [faol ishtirok etish](#)
- Guruhdagi ota-onalar uchun tadbirlar;
- Bolani nazorat qilish, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni aniqlash.

Shunday qilib, ota-onalarni tuzatish jarayoniga ongli ravishda kiritish uchun sharoit beriladi.

Suhbat davomida o'qituvchi ota-onalarga ularning psixologik-pedagogik faoliyat kompleksidagi rolini tushuntiradi: Ular ota-onalar bilan hamkorlik va o'zaro [tushunish uchun asos yaratadi](#), ta'lim va tarbiya masalalariga qarashlar birligini ta'minlaydi. Uchrashuvlar aloqa strategiyasining muhim elementidir.

**Sinf rahbarining oila va jamoa bilan olib boradigan faoliyati.** Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani [doimo mustahkamlab boradi](#);
- O'quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo'yishga erishadi;
- Sinf ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta'minlaydi;
- Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko'taradi;
- Sinfga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va maktabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o'rnatadi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Sinf rahbarining o'quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-

birlariga qanchalik ko'p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog'liq. Ana shu maqsadda sinf rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

- O'quvchining o'quv [mehnatiga tavsifnoma](#), o'qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.
- O'quvchinning ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, o'quvchining jamoa hayotidagi ishtiroki [nimalardan iborat ekanligi](#), jamoat topshiriqlari va vazifalarning bor-yo'qligi, sababi, ularga o'zining munosabati.
- O'quvchining o'z o'rtoqlari, o'qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning xarakteri, maktabdagi munosabatlarnig doirasi.
- O'quvchining ayrim hatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga o'quvchi tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar.

Oila ham o'z navbatida farzandi haqida o'z mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan sinf rahbariga quyidagi mazmunda ma'lum axborotlar berib borishi mumkin:

- Farzandi uyga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, [unga sarflaydigan vaqti](#), dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.
- Belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.
- O'quvchining maktab haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, sinf hayotidagi turli voqealarga baholari.
- Ota-onaning ayrim o'qituvchilardan, sinf rahbaridan, maktab rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Sinf rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi.

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi:

- ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;
- hamkorlik jarayoni sub'ektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;
- hamkorlikning [ilmiy asoslanganligi](#);

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli [pavishda odamning butun](#) hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning

mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatisihning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur buginiga ham aylantiradi.

O'quvchi-yoshlar o'rtasida axloqiy me'yorlarga mos xulq-atvorni shakllantirishda ta'lim muassasasi, oila va mahalla o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim.

Insonning birinchi ustozidir. Islomda "mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqlidir, degan savolga uch marotaba "Onang" deyilgandan keyingina to'rtinchi marta "Otang" deb javob berilgan. Oiladagi tarbiya muhiti bolaning indiviidualligi uning o'qishidan tashqaridagi faoliyatlarida kitobxonlik, tabiatga, dinga va boshqalarda aniq ko'rinadi.

Aziz ota onalar farzandingizga psixologik muammolarni bartaraf etishda, ulg'ayish azobining oson kechishini istasangiz quyidagilarga ahamiyat bering:

✓ Farzandingizning boshini silab, yelkasiga o'rtoqlarcha urib qo'ying. Sizing qo'llaringiz shunday sehrli ta'sir kuchiga egaki, u ba'zan so'zdan ham, sovg'adan ham qudratiroqdir.

✓ Baqirish bilan tarbiyaning barcha natijalarini yo'qqa chiqarasiz.

✓ Farzandingizning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilish sizning asosiy vazifangiz.

✓ Oilaviy muammolarni farzandingiz oldida hal qilmaslikka harakat qiling.

✓ Bolangizga sabr toqat bilan o'rgating.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016.

2. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: "Iqtisod-moliya". 2009.

3. D.Safarova "Sinf rahbarlarini tayyorlash" o'quv-uslubiy majmua. Toshkent 2021 y.

4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat / – T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. 2006.

5. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>